

Aromatik vinil efirlar asosida olingan prisadkalarning dizel yoqig‘ilari ekspluatatsion xossalariiga ta’siri

Xolmirza Maxmarajab o‘g‘li Ismatov

zehniddin2012@mail.ru

Kamoliddin Ramazonovich Xo‘jaqulov

zehniddin2012@mail.ru

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bir atomli fenollarning vinil efirlari asosida prisadkalar olish texnologiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda vinil efirlar asosida polimer prizadkalar sintez qilishning optimal sharoitlari aniqlanib, ularning struktura-xossalari, fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, olingan polimerlarning diesel yoqilg‘isi tarkibiga qo‘shilganda ko‘rsatgan ta’siri - oksidlanish, xiranish, muzlash xossalariiga ta’siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida samarali, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan yangi prisadka turlarini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: bir atomli fenollar, vinil efirlari, prisadkalar, polimerlanish, diesel yoqilg‘isi, oksidlanishga chidamlilik

The effect of additives based on aromatic vinyl ethers on the operational properties of diesel fuels

Kholmirza Makhmarajab ugli Ismatov

zehniddin2012@mail.ru

Kamoliddin Ramazonovich Khujakulov

zehniddin2012@mail.ru

Bukhara State Technical University

Abstract: This article discusses the issues of improving the technology for obtaining additives based on vinyl esters of monoatomic phenols. The study identified optimal conditions for the synthesis of polymer additives based on vinyl esters, and their structural properties, physicochemical and operational properties were studied in depth. The effect of the obtained polymers when added to diesel fuel was also determined - their effect on oxidation, turbidity, and freezing properties. Based on the results of the study, practical recommendations were developed for

obtaining new types of additives that are effective, environmentally safe, and economically feasible.

Keywords: monoatomic phenols, vinyl ethers, additives, polymerization, diesel fuel, oxidation resistance

So‘nggi yillarda sanoat neft mahsulotlarining ekspluatatsion xossalari oshirish, ularning xizmat muddatini uzaytirish hamda ekologik xavfsizligini ta’minlash masalalari dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada maxsus kimyoviy qo‘srimchalar - prisadkalardan keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, fenol hosilalari asosidagi antioksidant va stabilizator xossasiga ega bo‘lgan polimer prisadkalar dizel yoqilg‘ilari ishlab chiqarish sanoatida katta talabga ega.

Bir atomli fenollarning vinil efirlari esa yuqori reaksiyon qobiliyatga ega bo‘lib, ularni turli radikal polimerlash reaksiyalarida ishtirok ettirish orqali funksional polimerlar olish mumkin. Ushbu turdagি polimerlar o‘zining termik barqarorligi, oksidlanishga chidamliligi va dispersiyalovchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning tarkibida faol guruhlarning mavjudligi esa ularni dizel yoqilg‘i tarkibida kompleks stabilizator sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Bizning tajribalarimizda fenolga vinilatsetilen yuqori asosli sistemada odatdagи bosimda, turli xil haroratlarda ta’sir ettirildi. Dastlab vinilatsetilen quyidagi reaksiya natijasida olindi va krezoLga yuttirilib saqlandi.



KrezoLga yutilgan vinilatsetilen harorat ortishi bilan desorbsiyalanib chiqarish boshlaydi va fenolli reaksiyon aralashmaga kiritiladi.


Fenollarning massasiga nisbatan 10 % miqdorda ishqor qo‘silib, kuchli asosli sistema hosil qilinadi. Ishqor dastlab DMSO da eritilib, unga orto, meta, para krezoL yoki fenol eritilib, unga odatdagи bosimda vinilatsetilen o’tkaziladi. Reaksiyon aralashmaning qovushqoqligini o‘zgarishi, reaksiya borayotganini bildiradi. Reaksiyaning borishiga harorat, katalizator va vaqt ta’siri e’tiborga olinadi.

β-fenoksibutadiyen -1,3 asosida qo‘shtopolimerlar sintezi

Qo‘shtopolimerlanish jarayoni laboratoriya sharoitida qaytar sovitgich, aralashtirgich, termometr va reagentlarni kiritish uchun kiritish joyi bilan jihozlangan termostatga joylashtirilgan to‘rt bo‘g‘izli kolbada amalga oshirildi (1-rasm).

Jihozlangan qurilma yig‘ib bo‘lingandan so‘ng, avvalo β-fenoksibutadiyen -1,3 analitik tarozida o‘lchab oldik, kolbaga soldik va aralashtirib turib qaynagunicha qizdirib, o‘lchanigan miqdorda metilmekrilit kio‘sildi. Qo‘shtopolimerlanishni boshqarish va faol markazni hosil qiluvchi insiator aniq miqdorda o‘lchanib tomizgich voronka yordamida namunalarni kiritish uchun qo‘srimcha kiritish yo‘li orqali tomchilatib kiritildi. Qo‘shtopolimerlanish jarayoni tugagandan so‘ng kolba suvli

hammom (4°C) yordamida sovutildi. Reaksiyaga kirmagan monomerlar past bosim (0,5 mm.sim.ust. gacha) ostida haydab ajratib olindi. Vakuumlash sharoitida polimer kolbada $T=20\text{-}250^{\circ}\text{C}$ da doimiy og'irlikgacha quritildi. Monomerlar konversiyasi gravimetrik usulda aniqlandi.



1-rasm. Sopolimerlash jarayonini amalga oshirish laboratoriya qurilmasi
1-uch og'izli kolba, 2-tomizgich varonka, 3-qaytar sovutgich, 4-parrakli aralashtirgich, 5-ulovchi mufti, 6-mahkamlovchi mufta, 7-elektr isitgich β -fenoksibutadiyen -1,3 ning metilmekatrilat bilan qo'shpolimerlanishi

Belgilangan xossali polimer va qo'shpolimerlar sintez qilishning eng ko'p tarqalgan usuli bu qo'sh polimerlash usuli hisoblanadi. Shuningdek, akrilatlar asosida samarali prisadkalar keng miqyosda ishlatalishini e'tiborga olib sintez qilingan vinil monomerlarni MMA bilan qo'shpolimeri asosida olingan quyuqlashtiruvchi prisadkalar ekspluatatsiya davomida ijobiy xossalari namayon etadi. Mazkur ishning alohida ahamiyatini dizel yoqilg'ilar uchun meyoriy hujjatlarning aksariyatida destruksiyaga chidamlilik bo'yicha talablarning mavjudligi belgilaydi. Shu sababli prisadkaning aynan mexanik destruksiyaga yuqori chidamlilikka ega manba tejovchi modifikatsiyalarini ishlab chiqish muammosi dolzarb va muhim bo'lib hisoblanadi.

Kompozitsion bir jinsli navbatlanadigan qo'shpolimer turli tabiatli monomer bo'g'inalari o'zaro ta'sirlashishi hisobidan yanada barqaror bo'lishi kerak.

Akril hosilalari va fenollarning vinil hosilalari asosida olingan qo'shpolimerlari makromolekulalari mexanik destruksiyaga yuqori barqarorligi va yuqori prisadka xossasini namyon qilishi haqidagi taxmin bilan belgilanadi. Muvofiq ravishda, birinchi galdag'i vazifa uni olish bo'lgan navbatlanadigan strukturadagi qo'shpolimer mineral, sintetik va yarim sintetik tabiatli moyli asoslarda erish uchun universal

bo‘lishi, va asosiy polimer zanjirning tuzilishi xuusiyati sababli destruksiyaga barqaror bo‘lishi lozim.

Akril hosilalari va fenollarning vinil hosilalari asosidagi kompozitsion bir jinsli navbatlanadigan qo‘shpolimerlar sintezi uchun mazkur qo‘shmonomerlar nisbiy faolligidagi farqliklar bilan belgilanadigan monomer aralashmadan qo‘shpolimerlashda paydo bo‘ladigan bir qator qiyinchiliklar sababli kompensatsion yondashuv qabul qilindi.

Ma’lumki radikalning faol markazga aylanishi qo‘shpolimerning tarkibini belgilovchi omillar bo‘lib monomerlarning nisbiy faolliklari hisoblanadi.

Qo‘shpolimerlanishda ishtirok etuvchi monomerlarning faolligi olinadigan qo‘shpolimerning molekulyar dizaynnini belgilab beradi. Agarda qo‘shpolimerlanishga ishtirok etuvchi monomerlardan biri nol nisbiy faollika ega bo‘lgan holatda, bu esa turli tuzilishga ega monomerlar bilan radikal qo‘shpolimerlanishida kuzatiladi. Demak, monomerning faolligi yuqori bo‘lishi bilan qo‘shpolimerda uning miqdori ham ortib boradi. Ushbu holat monomerlar aralashmasida doimo kuzatilishi mumkin.


Ushbu holatni boshqarish uchun monomerlar miqdori va haroratni o‘zgartirgan holda amalga oshirish mumkin.

1-jadval

DAK (0.15 mol. %) ishtirokida monomer aralashmada qo‘shpolimerlanshi. T=800C

| Sintez vaqtি, soat | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---------------------------------|----|----|----|----|
| Faol monomer bo‘yicha chiqishi, | 15 | 27 | 55 | 62 |

Reaksiyaning borish sxemasini kvant-kimyoviy tahlillar asosida quyidagicha talqin etildi va bu zamonaviy tekshirish usullari orqali isbotlandi.




Kompensatsion qo‘shpolimerlash usuli katalizatorlar va qimmatli qo‘shimchalarning ishlatalishini talab qilmasligi bilan bir qatorda, sintezni amaliy bajarish nuqtai nazaridan qo‘shpolimerlashni qaynayotgan muhitda amalga oshirish imkoniyati ham muhim bo‘lib hisoblanadi.

Sintez qilingan qo'shpolimerlarning molekulyar massalari krioskopik usulda aniqlandi. Sintez qilingan qo'shpolimerlarning molekulyar massalari krioskopik usulda aniqlandi va 5604 dan 7350 g/mol gacha ekanligi aniqlandi. Sintez qilingan qo'shpolimerimiz qo'ng'ir rangda, qovushqoq-oquvchan va dizel yoqilg'isida juda yaxshi eruvchan qo'ndirma.

Krezolning vinil hosilalari bilan metilmekrilitning qo'shpolimerlanishi

Akril hosilalari va krezollarning vinil hosilalari qo'shpolimerlari asosidagi yangi modifikator olish tartibi ham yuqoridagi tartibda olib borildi.

Reaksiya quyidagi mexanizm asosida boradi.



Ushbu sxema asosida olingan moddaning xossalari tadqiq etildi. Sintez qilingan qo'shpolimerlarning molekulyar massalari krioskopik usulda aniqlandi. Sintez qilingan qo'shpolimerlarning molekulyar massalari krioskopik usulda aniqlandi 7350 dan 11770 g/mol gacha bo'ladi. Sintez qilingan qo'shpolimerimiz qo'ng'ir rangda, qovushqoq-oquvchan va dizel yoqilg'isida juda yaxshi eruvchan qo'ndirma.

Tadqiqotlarda olingan natijalardan ko'rinish turibdiki, namuna sifatida olingan dizel yoqilg'isi mexanik xossalari (qotish temperaturasi, sovuq filtrlanish) ko'rsatgichlariga turli xil miqdorda qo'shilganda ijobjiy ta'sir etdi. BNQIZ laboratoriya sharoitida tekshirilganda Prisadka1 prisadkadan dizel yoqilg'isiga 0,1 % qo'shilganda maksimal qotish haroratini $-25,8^{\circ}\text{C}$ gacha, sovuq filtrlanishni -17°C gacha tushirishga erishdi. Prisadka2 prisadkadan dizel yoqilg'isiga 0,1 % qo'shilganda maksimal qotish haroratini $-26,5^{\circ}\text{C}$ gacha, sovuq filtrlanishni -18°C gacha tushirishga erishdi. Prisadka3 prisadkadan dizel yoqilg'isiga 0,1 % qo'shilganda maksimal qotish haroratini $-28,5^{\circ}\text{C}$ gacha, sovuq filtrlanishni -19°C gacha tushirishga erishdi.

2-jadval

Sintez qilingan β -fenoksibutadiyen-1,3 va metilmekrilitli depressor prisadkalarni dizel yoqilg'isi xossalariiga ta'siri

| Nº | Namunaning nomi | Prisadkaning miqdori, % | Loyqalanish harorati, °C | Qotish harorati, °C | Filtrlanishi (sovuj) |
|----|---------------------------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------|----------------------|
| 1 | Dizel yoqilg'isi | - | -5 | -9 | -6 |
| 2 | Dizel yoqilg'isi + Prasadka1 prisadka | 0.1 | -5 | -25,8 | -17 |
| | | 0.5 | -6 | -26 | -18,1 |
| | | 1 | -7 | -31,6 | -20,4 |
| 3 | Dizel yoqilg'isi + Prasadka2 prisadka | 0.1 | -5 | -26,5 | -18 |
| | | 0.5 | -6 | -26,8 | -19 |
| | | 1 | -7 | -31 | -20,5 |
| 4 | Dizel yoqilg'isi + Prasadka3 prisadka | 0.1 | -5 | -28,5 | -19 |
| | | 0.5 | -6 | -35,6 | -22 |
| | | 1 | -7 | -37 | -23,5 |

Yuqorida keltirilgan tekshirish natijalari depressor- prisadkalarning dizel yoqilg'isiga 0,1 % miqdorida qo'shilganda yoqilg'inining qotish va sovuq filtrlanish ko'rsatgichlari bo'yicha ijobiy natjalarga erishildi.

Jadval va sxemadan ko'rinish turibdiki, namuna sifatida olingan dizel yoqilg'isi qotish temperaturasi, sovuq filtrlanish ko'rsatgichlariga turli xil miqdorda qo'shilganda ijobiy ta'sir etdi.

Standart bo'yicha dizel yoqilg'isiga 0,1% dan ko'p prisadka qo'shilmaydi va shuning uchun ham 0,1% miqdorda qo'shilgan natijalar olingan. Prasadkalardan yuqori miqdorda (0,5 % mass) yoqilg'iga qo'shilganda moylash xususiyati ancha yomonlashdi. Bu prisadka tarkibidagi kalsiy stearatni parchalanishi natijasida korrozion-mexanik yedirilish hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamoliddin, K., & Javlonbek, M. (2023). MODIFICATION OF CATALYTIC SYSTEMS IN THE PROCESS OF OBTAINING SYNTHETIC HIGH FATTY ACIDS THROUGH OXIDATION OF PARAFFIN HYDROCARBONS. Universum: технические науки, (3-5 (108)), 37-40.
2. Назаров Ш.К., Олимов Б.Б., Хайтов С. Синтез мономеров при участии винилацетилена из одноатомных фенолов содержащих ариловую группу universum: Химия и биология (научные журналы). Выпуск: 11(77) ноябрь 2020. Часть 2 Москва 2020 С. 11-16 б
3. Назаров Ш.К, Ахмедов В.Н Бир атомли фенолларнинг дивинил эфирларнинг олиниши ва ишлатилиши. Фан ва технологиялар тараққиёти. Бухоро 2021 й №5 115-122 б
4. Олимов Б.Б., Ахмедов В.Н. Influence of Temperature on the Synthesis of the Monovinyl Ether of 1,4 - Dihydroxybenzol (Hydroquinone) International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 8, Issue 1 , January 2021

5. Kamoliddin Khujakulov et al 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 839 042073DOI 10.1088/1755-1315/839/4/042073
6. Ахмедов В.Н., Олимов Б.Б., Назаров Ш.К. Винилацетилен ва у асосидаги винил эфирлар Бухоро: "Durdona", 2019 86 б.
7. Ахмедов В.Н., Олимов Б.Б., Назаров Ш.К. Бир ва кўп атомли феноллар Бухоро: "Durdona", 2021 й 80 б.
8. Ахмедов В.Н., Олимов Б.Б. Способ получения виниловых эфиров на основе винилацетилена. Dedicated to the 97__ Anniversary of the National Leader of Azerbaijan, Heydar Aliyev. 20 Natural sciences, Baku Engineering University, 2020 с.252-254
9. Khujakulov, K. R., Narzullaeva, A. M., Rayimov, Z. X., Niyozova, R. N., Jamilova, N. Q., & Raxmonov, B. O. (2020). Analysis of Physical and Mechanical Properties of Skin Oil Based on Secondary Petroleum Products. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 7(11), 15908-13.
10. Назаров Ш.К., Олимов Б.Б., Ахмедов В.Н. Предварительный квантово-химический анализ синтезированных мономеров с участием винилацетилена. International journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. Special Issue September 2020, pp. 50-56